



HAMKORLIK TA'LIMI VA UNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARINING
ZAMONAVIY O'QITISHDAGI ROLI

Yuldasheva Malohat Erkinovna

dotsent, PhD.

Rahimova Feruza Najmiddinovna

dotsent, PhD. Qo'qon davlat universiteti.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada hamkorlik ta'limining mazmun-mohiyati, uning asosiy tamoyillari, tarkibiy elementlari hamda zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, talabalarning jamoada, kichik guruh va juftliklarda ishlash orqali bilimlarni samarali o'zlashtirishlari, o'zaro hamkorlik va mas'uliyat hissini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Hamkorlik ta'limini tashkil etishda qo'llaniladigan texnologiyalar va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *hamkorlik ta'limi, jamoaviy ta'lim, kichik guruh, juftlikda ishlash, pedagogik texnologiya, ta'lim samaradorligi, interfaol metodlar, o'quv-bilish faoliyati, ta'lim jarayoni, talaba faolligi.*

Buyuk qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino bola shaxsini tarbiyalashda jamoaviy ta'limning o'rnini yuqori baholab, bolalarni hamkorlikda ishlatishning afzalliklarini o'z fikrlari bilan asoslab bergan edi. Zamonaviy sharoitda hamkorlik ta'limi va uni tashkil etish o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Hamkorlik ta'limi – o'quv jarayonida talabalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, “pedagog – talaba” munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ifodalovchi ta'lim bo'lib, uning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini jamoada, kichik guruhlarda yoki juftlikda birgalikda, o'zaro hamkorlikda bajarish jarayonidir. Bu turdagi ta'lim turli yo'nalishlarda tashkil etiladi.

Har qanday ta'lim kabi hamkorlik ta'limi ham muayyan ustuvor tamoyillarga ega. Ushbu tamoyillar hamkorlik ta'limining eng muhim asoslarini yoritishga xizmat qiladi.

1. Juftlik va kichik guruh a'zolarining o'zaro birligi.

Unga ko'ra ta'lim jarayonida o'quv materiallari juftlik va kichik guruh a'zolarining o'zaro birlikdagi harakatlari asosida o'zlashtiriladi. Pedagog yaxlit o'quv materialini juftlik yoki kichik guruhlarini shakllantirish asosida ular tomonidan samarali, puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitni yarata olishi zarur.

2. Juftlik va kichik guruhda har bir a'zoning shaxsiy hamda guruh muvaffaqiyati uchun javobgarligi.

Hamkorlik ta'limi talabalarning o'zaro, birgalikda ta'lim olishini ta'minlash bilan birga, har bir talabaning juftlik yoki kichik guruhda o'zining ichki imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqara olishi uchun qulay muhitni yaratib berishi zarur. Qolaversa, ta'lim olish hamkorlikka asoslanganligi sababli har bir talaba o'zi mansub bo'lgan juftlik va kichik guruh manfaatlari





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



uchun kurashishi, o'z jufti va jamoadoshlari bilan muvaffaqiyatga erishish uchun mas'uliyatli yondasha olishi zarur.

3. Juftlik va kichik guruhda hamkorlikka asoslangan o'quv-bilish faoliyatining tashkil etilishi.

Hamkorlik ta'limiga ko'ra talabalar o'quv-bilish faoliyatini juftlik va kichik guruhga birikkan holda tashkil etadi. Hamkorlik ham nazariy, ham amaliy xarakterga ega mashg'ulotlarda birdek ta'minlanadi. Nazariy mashg'ulotlarda talabalardan tarkib topgan juftlik yoki kichik guruhlariga nisbatan murakkab bo'lmagan va qisqa muddatda yechish mumkin bo'lgan o'quv topshiriqlari berilsa, amaliy mashg'ulotlarda esa bir qadar murakkab yoki murakkab vazifalar beriladi. Har ikki holatda ham talabalar juftlik va kichik guruhlarda imkoniyatlarni yagona nuqtaga to'plagan holda o'quv topshiriqlarini samarali bajarish, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga e'tiborni qaratadi.

4. Juftlik va kichik guruh ishining umumiy baholanishi.

Hamkorlik ta'limiga ko'ra juftlik va kichik guruhlarda ishlagan barcha talabalarning faoliyati bevosita sherigi hamda guruhdoshlarining umumiy faoliyati negizida baholanadi. Bu holat har bir talabada mas'uliyatni yanada oshirishga xizmat qiladi. Zero, har bir talabaning faoliyati, yondashuvi, faolligi juftlik yoki kichik guruh faoliyati samaradorligini oshirishga munosib hissa bo'lib qo'shiladi.

Hamkorlik ta'limi o'zida muayyan belgilarni namoyon etadi. Ular ta'lim oluvchilar o'rtasida o'zaro muloqot, hamjihatlik, mas'uliyat, o'zaro yordam va hamkorlikka asoslangan faoliyatni tashkil etishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishga xizmat qiladigan hamkorlik ta'limi ham o'zining muayyan tarkibiy elementlariga ega bo'ladi. Hamkorlik ta'limini qo'llashda talabalar quyidagi shakllarda ta'lim oladi:

1. jamoada;
2. kichik guruhda;
3. juftlikda.

Hamkorlik ta'limini qo'llash muayyan tartibda kechadi. Ya'ni:

- talabalar (4–5 kishi) kichik guruhlarda ishlaydi;
- jamoa uchun yagona o'quv materialini taqdim etiladi;
- har bir guruh alohida savolga javob topadi;
- ekspert guruhi shakllantiriladi;
- bu guruh har bir guruh ishi bilan batafsil tanishadi;
- ekspert guruhi har bir talabaning faoliyatini individual baholash imkoniyatiga ega;
- talabalar to'plagan ballar umumlashtirilib, kichik guruhning faoliyati baholanadi;
- eng yuqori ball to'plagan jamoa g'olib sanaladi.

Hamkorlik ta'limini tashkil etishda bir qator texnologiyalar (“Birgalikda o'qiymiz!”, “Kichik guruhdagi tadqiqot”, rolli va ishbilarmonlik o'yinlari, ijodiy bellashuv kabilar) qo'llaniladi. Bunda e'tibor qaratiladigan jihat shuki, tanlangan har qanday texnologiya talabalar tomonidan o'quv materiallarining juftlik, kichik guruh yoki jamoada o'zaro



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



samarali, muvaffaqiyatli o'zlashtirilishini ta'minlay olishi lozim. Ushbu ta'lim texnologiyasi ta'lim oluvchilarning insonparvarlik fazilatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hamkorlik ta'limi zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish bilan bir qatorda ularda jamoada ishlash, mas'uliyatni his etish, o'zaro yordam va hamkorlik madaniyatini shakllantiradi. Shu bois mazkur texnologiyalarni ta'lim amaliyotida keng qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibn Sino A. Donishnoma. – Toshkent: Fan, 1981.
2. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
3. Ishmuhammedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2017.
4. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
5. Ziyomammedov B. Pedagogika. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2013.

